

## Shavkat Mirziyoev: Birinchi navbatda aholi bandligini ta`minlashimiz kerak

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(51 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(51 KB\)](#)

**"Zarbdor textile" mas`uliyati cheklangan jamiyati joriy yilning aprel` oyida ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Korxonada 17,5 million dollarlik qurilish-montaj ishlari bajarilgan.**

Korxonada yiliga 31 million kvadrat metr mato hamda 6,5 million dona trikotaj mahsulotlari ishlab chiqariladi. Korxonada o`z faoliyatini boshlashi bilan 864 ish o`rni yaratiladi. Ishlab chiqarishni kengaytirish evaziga joriy yilning uchinchi choragida yana 196 nafar xotin-qiz ish bilan ta`minlanadi.

Korxonada bilan tanishish chog`ida Prezidentimiz mamlakatimizda etishtirilayotgan paxta o`zimizda to`liq qayta ishlanishi qo`shimcha qiymatli mahsulot tayyorlash bilan birga yangi ish o`rni yaratish imkonini berishini ta`kidladi.

Jizzax shahridagi sobiq to`qimachilik kombinatining bo`sh turgan binolari negizida zamonaviy to`qimachilik majmuasini barpo etish, "Jizzax", "Zomin-farm" erkin iqtisodiy zonalarida 2018-2019 yillar uchun rejalashtirilgan investitsiya, shuningdek, viloyatda engil sanoat va qishloq xo`jaligi sohalarida amalga oshiriladigan loyihalar taqdimoti ham o`tkazildi.

**Umar Asrorov, O`ZA**

30.03.2018 15:00 da elon qilingan, marta korib chiqildi